



PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY VA FUNKTSIONAL XUSUSIYATLARI

SamDChTI

*Koreys filologiyasi kafedra mudiri
(PhD), v.v.b.dotsent*

Bayonkhanova Iroda Furkatovna

Email: irodabayonkhanova2208@gmail.com

Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos namunasi sanalgan maqollar, matallar, idiomalar va frazeologik iboralar xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, hayot tajribasi, e‘tiqodi va axloqiy tamoyillarini mujassam etgan. Paremiologik birliklar — ya‘ni maqollar, matallar, iboralar, hikmatli so‘zlar, xalq ardoqlagan so‘z boyliklari — har bir millatning madaniyati, tafakkuri, qadriyatlari va tarixiy tajribasining in‘ikosi hisoblanadi. Ular xalq tilida asrlar davomida shakllanib, og‘zaki nutqdan yozma adabiyotgacha ko‘plab kommunikativ kontekstlarda qo‘llaniladi. Paremiologik iboralar orqali nafaqat nutq bezatiladi, balki milliy ruh, ijtimoiy me‘yorlar va axloqiy qadriyatlar ham ifodalanadi. Har bir xalqning turmush tarzi, diniy e‘tiqodlari, tarixiy tajribalari va ijtimoiy qadriyatlari paremiologik iboralarda mujassam bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida ishlatiladigan “Har kimning o‘z oshig‘i go‘zal”, “Yaxshi otga bir qamchi” kabi maqollar orqali jamiyatda donishmandlik, mulohazakorlik, mehnatsevarlik, oila sadoqati kabi qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Koreys tilida esa “윗물이 맑아야 아랫물이 맑다” (Yuqoridan toza suv kelsa, pastda ham suv toza bo‘ladi) kabi maqollar ijtimoiy tartib, oila va jamiyatdagi iyerarxiyani ifodalaydi. Bu orqali konfutsiylik an‘analari — ya‘ni kattalarga hurmat, ijtimoiy rolga bo‘ysunish — namoyon bo‘ladi. Paremiologik iboralar xalqning dunyoni qanday tasavvur qilgani, hayotga qanday munosabatda bo‘lgani, tabiat va jamiyat hodisalarini qanday tushunganini aks ettiradi. Ular xalq tafakkurining eng ixcham va chuqur ko‘rinishidir. Masalan, O‘zbekcha maqol: Bugungi ishni ertaga qo‘yma — vaqtning qadri, mehnatsevarlik. Koreyscha maqol: 고생 끝에 낙이 온다 (mashaqqatdan keyin rohat keladi) — sabr va bardosh orqali muvaffaqiyatga erishish. Bu kabi maqollar shunchaki ibora emas, balki avloddan avlodga o‘tgan hayotiy tajribaning semantik konsentratsiyasi sifatida qaraladi. [<http://corpus.ziyonet.uz>]

Paremiologik birliklar tarbiya jarayonida keng qo‘llaniladi. Ota-onalar, ustozlar bolalarni ogo0hlantirish, to‘g‘ri yo‘lga boshlash yoki nasihat qilish



uchun maqollar va matallardan foydalanadilar. Masalan: O‘zbek tilida: Qush uyasida ko‘rganini qiladi, Yomon o‘rtoqdan yiroq yur — ijtimoiy muomala va axloqiy me‘yorlarni tushuntiradi. Koreys tilida: 가는 말이 고와야 오는 말

이 곱다 (Yaxshi gapirsang, yaxshi eshitasan) — hurmat, muloyimlik madaniyatini o‘rgatadi. Demak, paremiologik birliklar jamiyatda axloqiy, estetik va pedagogik funktsiya bajaradi. Paremiologik birliklar tilning ma‘no qatlamini boyitadi, madaniy xotirani uzluksiz ravishda avloddan avlodga yetkazib boradi. Mavzuni koreys va o‘zbek tillari nuqtai nazaridan qiyosiy o‘rganish orqali biz ikki xil tillar, lekin tarixan va madaniy jihatdan o‘zaro yaqin xalqlarning tafakkuridagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash imkoniga ega bo‘ldik.

1. Paremiologik birliklarning umumiy mohiyati koreys va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lgan paremiologik birliklar semantik jihatdan xalqning tarixiy, ijtimoiy va ma‘naviy hayotining mahsuli sifatida shakllangan. Maqollar, matallar va idiomalar muayyan hayotiy tajribalarni umumlashtirib, axloqiy mezonlarni belgilovchi, saboq beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ikkala tilda ham maqollar axloqiy, pedagogik, ijtimoiy, diniy va mehnatga oid g‘oyalarni ifodalashda qo‘llaniladi.

2. Koreys va o‘zbek paremiologiyasining semantik qiyoslanishi

O‘zaro qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, koreys va o‘zbek tillaridagi ko‘plab maqol va matallar mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lib, ayrim hollarda to‘liq ekvivalentga ega. Biroq ular har doim ham leksik yoki obrazlar jihatidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelavermaydi. Misol uchun:

Koreyscha: "호랑이 굴에 가야 호랑이 새끼를 잡는다"

O‘zbekcha: Qo‘rqqan go‘sht yeyolmas yoki Er yigit o‘lim topar, lekin g‘am topmas, bu kabi o‘xshashliklar xalq tafakkurida jasorat, sabr, kurashuvchanlik kabi tushunchalarning qadrlanishini ko‘rsatadi.

3. Tarjima jarayonidagi muammolar

Paremiologik birliklarning tarjimasi — eng murakkab tarjima sohalaridan biri sanaladi. Chunki bu iboralar ko‘pincha metaforik ifoda vositalariga ega;

faqat muayyan madaniyatga xos timsollar bilan ishlatiladi, so‘zma-so‘z tarjimada o‘z semantik kuchini yo‘qotadi. Tarjimon uchun asosiy vazifa — iboraning shakli emas, mazmuni va funksiyasini boshqa tilda ifodalashdir.

4. Madaniy xususiyatlar va lingvomadaniy tafovutlar

Koreys xalqining Konfutsiy ta‘limotiga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga urg‘u bergani, o‘zbek xalqining esa Islom qadriyatlari asosida shakllangan insoniylik, mehnatsevarlik, halollik kabi tushunchalarni yuksak



baholagani paremiologiyada aks etgan. Misollar:

Koreyscha: "윗물이 맑아야 아랫물이 맑다" (Yuqori toza bo'lsa, quyi ham toza bo'ladi)

O'zbekcha: Otangga qarab o'g'il tanla

Bu maqollar orqali ota-onaga, kattalarga hurmat, ijtimoiy izchillik va axloqiy tartib targ'ib qilinadi.

5. Paremiologik birliklarning tasnifi

Tadqiqotda koreys va o'zbek paremiologik birliklari quyidagi guruhlariga ajratildi:

Mazmuni va shakli mos tushadiganlar

Mazmuni o'xshash, lekin obrazlari boshqa bo'lganlar

Faqat bir tilga xos, ekvivalenti yo'q iboralar

Bunday tasnif tarjimada ekvivalent tanlashda yordam beradi va qiyosiy tahlilni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

6. O'quv jarayonida qo'llanishi

Paremiologik birliklarni o'rganish koreys tilini o'rganayotgan o'zbekistonlik talabalar uchun madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirishga;

tilni obrazli, tabiiy shaklda o'zlashtirishga; kontekstual tarjima ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu jihatlar ta'lim metodikasi va tarjima kompetensiyasini shakllantirishda muhim omildir. Tadqiqot davomida koreys va o'zbek tillaridagi 100 dan ortiq paremiologik birliklar o'rganildi, turlari tasniflandi, ularning tarjima muammolari va yechimlari tahlil qilindi. Natijada quyidagi yangiliklar e'tirof etildi:

7. Koreys-o'zbek paremiologik lug'at tuzish bo'yicha metodik asoslar yaratildi;

Tarjimaning kontekstga asoslangan, madaniy jihatdan mos yondashuvlari tavsiya qilindi. O'zbek tilidagi universal maqollarni koreys tiliga o'girishda ishlatiladigan adaptatsion strategiyalar ishlab chiqildi. Koreys va o'zbek paremiologik birliklarini qiyosiy o'rganish nafaqat filologik, balki madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik fanlari kesishmasida turgan dolzarb yo'nalishdir. Ushbu tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Koreys-o'zbek paremiologik lug'atini yaratish – tarjimonlar, o'qituvchilar va talabalarga katta yordam beradi.

2. Til o'rganishda maqollar asosida interaktiv dars metodlarini ishlab chiqish –

3. Tarjimashunoslik bo'yicha qo'llanmalar tayyorlash – frazeologik birliklarni

4. Koreys va o'zbek maqollaridagi diniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni



solishtirgan tematik tadqiqotlar tashkil etish – bu ikki xalq madaniy yaqinligini ko‘rsatadi. [<https://uzbektili.uz>]

Koreys va o‘zbek paremiologik iboralarining ishlatilishi: Taqqosloviy tahlil

Paremiologiya - bu tilshunoslikning xalq maqollari, matallar, iboralar, aforizmlar va boshqa og‘zaki xalq ijodiga oid qisqa shakldagi ifodalarni o‘rganadigan sohasi. Har bir xalqning madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlar ana shunday iboralarda o‘z aksini topadi. Koreys va o‘zbek tillarida paremiologik iboralar xalqning hayot tarzi, tafakkuri, estetik qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzayev T. “O‘zbek xalq maqollari”. –Toshkent: 2003.
2. O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
3. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq 2012
4. Ўзбек халқ мақоллари. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
5. Ўзбек халқ мақоллари. II томли. –Тошкент: Ўзбекистон фан нашриёти, 1988
6. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma’nolar maxzani . -T.: 2001
7. .Баёнханова Ирода Фуркатовна Дискурсивно-прагматические характеристики статей, выражающих этикет общения (на примере корейского и узбекского языков)// ИЖССР. 2023. №1. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/discursive-pragmatic-characteristics-of-articles-expressing-the-etiquette-of-communication-on-the-example-of-korean-and-uzbek> (дата обращения: 09.10.2024).
8. Furkatovna, B. I., & Farxodovna, A. Z. (2023). Koreys va o'zbek tillarida hurmat ma'noni ifodalovchi maqollarning qiyosiy tahlili. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(5). .
9. Bayonxanova, I. F. (2024, February). Koreys va o ‘zbek tillarida odob-axloqqa oid maqollarning bevosita ifodalanish xususiyatlari. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 255-260).
10. Bayanxanova I. F. Linguopragmatic features of proverbs in uzbek, korean and english //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2023. – №. 1. – С. 18-21.
11. Korean Culture: Arts, Ideology, and Society - Edited by John J. Cha and Young I. Lew. Sahifa 385.
12. Korean Proverbs" by Daniel J. O'Neill — koreys maqollari tarjimalari va izohlari.



13. Naver Korean Dictionary (네이버 사전) — koreys tilidagi maqollar va idiomlar izohi.